

TONG yulduzi

№ 10
(66447)

2004 yil
8 - 14 mart

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqqan
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

KULING, OYIJON!

Ko'ngil qushim chog' qilib,
Kulishingiz chiroyli.
Uzoq borsam sog'inib
Kelishingiz chiroyli.

Katta bo'lmayin qancha,
Shuncha sizga kichikman.
Qayga ketsam, qayt deysiz,
Eson-omon, kechikmay!

Arzir sizni ardoqlab
Ko'kka ko'tarsam, oyil!
Farzandingizni olqab,
El izzat qilsin, doim!

Bizni maqtab odamlar,
Sizni maqtar, bilasiz.
Aql-hushli, solih bo'l
Deb duolar qilasiz.

Jafokash onalarga
Doim kulgu yarashar.
O'xshaylik deb ularga
Havas bilan qarashar.

Quvonchimiz quvnatib
Kuldirar ko'zingizni.
Kulib yuring shod etib
Siz o'g'il-qizingizni.

UMIDA.

ONAMNI TABRIKLAYMAN!

Salom sevimli gazetam «Tong yulduzi!» Senga yo'llayotgan ushbu maktubim birinchisi emas, tahririyatga qanchadan-qancha xatlar yozdim. Lekin sahifalaringda ulardan birontasini ham ko'rmadim. Tushunaman, senga turli viloyatlardan ko'plab maktublar keladi. Ammo bugun yozgan maktubim albatta sahifangdan joy olishini istardim. Nega, deysanmi? Chunki men uchun dunyoda eng sevimli inson - onajonimning tug'ilgan kunlarida arziqli sovg'a ololmadim. Sababi, hozircha pul topmayman. Gap pulda emas, shirin gap bilan ham tabriklasa bo'ladi, dersan. Albatta, shuning uchun ham dil so'zlarimni onajonim sahifangda o'qishlarini xohlayman. «Tong yulduzi»ga obuna bo'lganimga ikki oydan oshsa hamki, hali bir dona ham gazeta olganim yo'q. Umid qilamanki, maktubim bosilgan gazetani pochta amakilarimiz o'z vaqtida manzilimga yetkazib berishadi.



Nima uchun go'daklarning tili «Ona» deb chiqadi? Nima uchun chaqaloqlar faqat onasigagina talpinadi? Yillar o'tib, voyaga yetgan farzandlar nima uchun barchadan volidai muhtaramasini ustun qo'yib, hurmatini bajo keltiradi? Nima uchun onalarimiz sochlari oqarib, tishlari tushgan vaqtda ham farzandlari nazarida dunyodagi eng go'zal ayol bo'ladilar?..

Bu savollarga javob bitta. Onalarimiz biz tug'ilgan daqiqadan boshlab mehr ulashishdan, bizni oq yuvib, oq tarashdan, betob bo'lsak boshimizda parvona bo'lishdan charchashmaydi. Farzandlarining yutuqlarini o'zinikiday qabul qilib quvongan ham onalarimizdir. Qayg'uli kunlarimizda bizga suyanch bo'lguvchi ham shu zotdir. Shunday ekan, biz onalarimizni doimo asrab-avaylashimiz lozim.

Onajonim! Men sizni 8-Mart Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan tabriklayman! Dunyodagi barcha shodliklaru quvonchli kunlarni Sizga tilayman. Baxtimizga doimo sog' bo'ling!

Hurmat va ehtirom ila qizingiz ZIYODAXOH,
Toshkent viloyati, Ohangaron tumani.

Qiziq, xat muallifi ismini yozibdiyu,
manzilini aniqlik bilan yozmabdi. Pochtachi
amakilar xat egasini topib
olisharmikin?

ERTAKCHI QIZ - MALIKA



Aziz qizlarjon, kuni kecha televideniye orqali namoyish etilgan «Qizlar davrasi» ko'rsatuvini ko'rgandirsiz. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan biri-biridan go'zal, latofatli opalaringizga astoydil havas qilgandirsiz. Ana shu qizlar orasidagi ertakchi opangiz

Malikaxon Rahmonbekovani tanigandirsiz-a?

Hozirda Jahon tillari Universitetining fransuz filologiyasi fakultetida tahsil olayotgan Malikaxonning ko'plab mitti ertaklari «Gulxan», «G'uncha» jurnallari, «Klass» hamda bizning gazetamiz sahifalaridan joy olgan. Shunday ertaklari jamlangan kitoblari soni ham ko'payib qoldi. Aleksandr Dyuma, Viktor Gyugo, Balzak, Jyul Vern kabi fransuz adiblarining asarlarini sevib mutolaa qiladigan Malika o'zi yozgan hikoya va ertaklarini fransuz tiliga tarjima qildi.

Bugun Malika Rahmonbekova tahririyatimiz mehmoni:

-Malikaxon, o'tgan yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldingiz. Bunday yuksak

mukofotga erishish oson bo'lmagandir-a?

-To'g'ri aytasiz. Chunki bu tanlovda respublikamizdagi eng iqtidorli qizlar ishtirok etishdida. Hammamiz bu yuksak mukofotga sazovor bo'lish uchun astoydil harakat qildik. Omadim bor ekan, ta'lim yo'nalishi bo'yicha mukofotga sazovor bo'ldim.

-Malikaxon, yozgan ertaklaringiz darsliklarga ham kiritilibdi. Bu katta baxt-ku!

-Darslik mualliflari «Qor parcha», «Dono Momo haqida ertak», «Baxtli bo'lish osonmas» kabi ertaklarimni tanlab olishganda shunday xursand bo'ldimki, asti qo'yaverasiz. Axir olti yuz ming o'quvchi ertagimni o'qiydi-ya!

-Eshitishimcha, darsdan bo'sh

vaqtlaringizda Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi fransuz tili to'garagini boshqarayotgan ekansiz. Ham o'qish, ham ish qiyinlik qilmayaptimi?

-Men bolalarni juda sevaman. Ular bilan ishlash men uchun juda qiziqarli. Shuning uchun ham hech charchamayman. O'qishlarimga ham ulguryapman, baholarimning hammasi «a'lo».



Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori

-Mukofot toshi og'irlik qilmayaptimi? Sir bo'lmasa, kelgusi rejalaringiz haqida ham o'rtoqlashing.

-Bu mukofot zimmamizga yanada ko'proq mas'uliyat yukladi, desam xato bo'lmaydi. U bizni yanada yangi izlanishlar sari ruhlantiradi. Rejalarimga kelsak, ijod qilyapman. Fransuz tilidagi ertaklarni o'zbek tiliga tarjima qilyapman. Ba'zilarini nashrga berishga ham ulgurdim. Toshkent shahar hokimligi menga kompyuter sovg'a qilgan. Unda 100ga yaqin hikoya va ertaklarimni yozib qo'ydim.

Yana bir quvonchli xabar, Toshkent shahar hokimi Rustamjon Mavzurovich 4 nafar Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan qizlarni Fransiyaga sayohatga yuborishni lozim topdilar. Biz bu ishonchni,

rag'batni o'z ijodimiz bilan oqlashga va Parijda o'zbek qizlarining nimalarga qodirliklarini namoyon qilishga astoydil harakat qilamiz. Safar taassurotlarimni esa «Tong yulduzi» gazetasi muxlislari bilan albatta o'rtoqlashaman.

-Ijodingizga barkamollik, Zulfiyaxonim qizlari!

Suhbatdosh
Nargiza AKBAR qizi.

GAZETXON ONALAR

Assalomu alaykum, bolajonlarimizning sevimli gazetasi «Tong yulduzi»ning jonkuyar xodimlari! Biz - onalar Oltinko'l tumanining markaziy kutubxonasiga a'zomiz. Hatto, keksa muallimlar Komiljon ota, Komilaxon ayalar ham kutubxonaning bolalar bo'limiga a'zo bo'lishgan. Biz «Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha» kabi gazeta va jurnallarning har bir sonini qoldirmasdan o'qib boramiz. Sizlarga aytсам, 70 yoshni qarshilagan Komilaxon aya ko'zoynak orqali bo'lsa-da, «Tong yulduzi»ni sevib o'qiydilar. U kishi 45 yil muallimlik qilganlar. Biz onaxonlar maktabda nemis va ingliz tilidan yaxshi saboq olganimiz uchun ushbu gazeta lotin tilida chop etilsa-da, uni bimalol o'qiy olamiz. Gazeta sahifalarida bolajonlarimizning o'qish faoliyatlari, turli to'garaklar tashkil etilganligidan boxabar bo'lsak, she'riyatga qiziqqan o'g'il-qizlarimizning she'rilarini o'qib rohatlanamiz. Bolaligimda ushbu gazeta orqali tanishgan dugonalarim Sirdaryo tumanidan Zamira Mamanova, Chimkent viloyatidan Anorchaxon Yo'ldosheva, Romiton tumanidan Rahimaxon Nurmatovalar bilan bir-birimizga qanchadan-qancha maktublar yozishdik. Bugun sevimli gazetam orqali ana shu dugonalarimga ham yana bir bor sog'lik-omonlik tilayman.

Bolajonlarim, siz ham bu nashrlarga obuna bo'ling, o'tkir zehningiz yanada charxlanadi, ko'plab do'stlar ortirasiz, fikringiz kengayadi.

*Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi onaxonlar nomidan
Matluba ISROILOVA.*

MENING KATTA OYIM



Katta oyijonim Munavvarxon Sayidkarimova payg'ambar yoshidan oshganlar. Muloyim yuzu ko'zi doimo kulib turadi. Mahallamizdagi jamiki tadbirlar, to'y-ma'rakalar ularsiz o'tmaydi. Ayniqsa, kelin to'ylarida yor-yorlar aytilishlarini ko'rsangiz havas qilasiz. Bizlarni atrofiga yig'ib olib qiziq-qiziq ertaklar aytib beradilar. Ularning: «To'g'ri so'z bo'linglar, bexavotir bo'lasiz... Yolg'on gapirsangiz uyalib qolasiz», degan o'gitlariga doimo amal qilamiz. Gullarni, rayhonlarni yaxshi ko'rganliklari bois, o'zlaridan ham bu gullarning hidlari gurkirab turadi. Bag'rilariga bosh qo'yib, uzoq vaqt erkalangim keladi. Bugun dunyodagi barcha oyijonlarni, buvi-yu xolajonlarni 8-mart bayrami bilan qutlayman! Ularga sihat-salomatlik va uzoq umr tilayman!

*Madinaxon ABDUVOHIDOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
9-o'rta maktabning 4-sinf o'quvchisi.*

KO'KLAM KELDI ELIMGA

*Keldi bahor ona yurtimga,
Tabiatda o'zgacha chiroy.
Qir-adirlar alvon lolazor,
Bahor bilan keldi Navro'zoy.
Chuchmoma-yu binafshalardan,
To'qishadi qizlar chambarak.
Bolajonlar varrak uchirar,
Bular bari - bahordan darak.*



*Madina SAIDMURODOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
5 - ixtisoslashtirilgan maktabning
7 - «A» sinf o'quvchisi.*

SHARQONA TARONALAR DONISHMANDI EDI

Ma'lumki, 2003 yil YUNESKO tashkiloti kompozitor Aram Ilich Xachaturyanni yuz yilligini moliyaviy jihatdan (ayrim sabablarga ko'ra) nishonlamagan bo'lsa ham, dunyo xalqlari buyuk insonni hamisha xotirlaydilar. Yaqinda Alisher Navoiy nomidagi O'zbek Davlat Opera va balet drama teatrida ijodkorning shoh asari «Spartak» baletini tomoshabinlar katta olqishlar bilan kutib olishdi. Xoreograf Ibrohim Yusupov hamda dirijor Dilbar Abdurahmonovalarning orkestr bilan olib borgan samarali mehnatlari muxlislar qalbidan munosib joy egalladi. Xachaturyanning dunyo xazinasiga qo'shgan bebaho asarlari asrlar osha mangu yashayveradi. U kelgusi avlodlarga ham ma'naviy oziq bo'ladi.

Hasan IBROHIMOV, bastakor.

ONA MEHR BULOG'I, HECH BO'LMASIN ADOG'I

Tog'u toshlar bag'ridan qaynab chiquvchi shaffof buloqni ko'rganmisiz? Ana shu mitti buloqning suvi qanchadan-qancha insonlarga, jonzotlarga giyohlarga hayot baxsh etadi. Onalarimiz mehri ham bejiz buloqqa qiyoslanmaydi. Chunki ular mehri ham adog'i yo'q, shaffof va hayotbaxshdir.

To'g'ri, onalarimiz ba'zan bizga nisbatan talabchanlik, qattiqqo'llik qilishadi, sho'xlik qilsak, koyib ham turishadi. Nima qilishsa ham, bizni yaxshi bo'lishsin, deyishadi-da...

Ammo shunday onalar ham borki, men ularni sahrodagi yantoqqa, saksovolga qiyoslagim keladi. Lekin o'ylab qaragam, ular ham o'zlari unib chiqqan yerni ildizlari bilan shamolu bo'ronlardan saqlab qolar ekan. Demak, ularda ham mehr-oqibat bor ekan. Ayrim mehrsiz onalarimizda esa shularchalik ham mehr yo'q. Ular o'z jigarporalarini «Mehribonlik uylari»ga topshirib, faqat o'zlari uchun yashaydilar. Vaqti kelib, ular ham keksayib qolganlarida mehri, oqibatni qayerdan olisharkin?!

MEHR QOLUR, MUHABBAT QOLUR

*Mehringizni ayamang do'stlar,
Mehr qolsin, muhabbat qolsin.
Umr o'tar shoshih daryoday,
Mehr qolsin, muhabbat qolsin.
Ranjitmangiz birov ko'nglini,
Dildan dillar ozuqa olsin.
Qaytar dunyo, deydilar axir,
Mehr qolsin, muhabbat qolsin.*

*Ziyoda MIRZAJONOVA,
Shayxontohur tumanidagi 254 - maktabning
4 - «B» sinf o'quvchisi.*

BO'LAJAK OLIMLAR MAKTUBI

Tumanimizning Samandarak qishlog'ida iqtidorli bolalar olimpiada zaxiralari maxsus ilmiy-tadqiqot litsey-internati ochilganiga unchalik ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Shu oz fursatda faoliyat yo'nalishlari bo'yicha keng ko'lamda ish olib borilayotgan mazkur dargohda talaygina ibratli ishlar amalga oshirildi. Litsey-internatda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual rivojlanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, fan olimpiadalarida qatnashib, ilmiy ishlar qilishlariga imkon yaratish, shuningdek, ularni hayotga tayyorlash, ta'limni dunyo standartlariga moslashtirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Shu maqsadda litsey jamoasi tuman xalq ta'limi bo'limi metodika xonasi, viloyat pedagog xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash oliygohi hamda Farg'ona Davlat Universiteti jamoasi bilan hamkorlik qilmoqda. Litsey-internat o'quvchilari ayni vaqtda puxta bilim olish bilangina kifoyalaniq qolmay, ijodiy ishlarga qo'l urmoqdalar. 9-10-sinflarning izlanuvchan, bilimdon o'quvchilaridan Husanoy Mirkarimovanning «Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish», Shahnoza Ahmadjonovanning «Suyuqlik va gazlarning xossalari», Manzura Asqarovanning «Shayboniyar sulolasi», Uchqunbek Sharofutdinovning «Mashrab e'tiqodi» mavzularidagi ijodiy ishlari muvaffaqiyatli chiqqan. Mazkur bilim dargohidagi ustoz-murabbiylarning shogirdlaridan umidlari katta. Kelajakda ular orasidan taniqli olimlar, fan arboblari yetishib chiqishiga ishonadilar.

*Vali AHMADJON,
Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani, Konizar qishlog'i.*



BOLALAR MUSOBAQALARNI SOG'INISHGAN

-Men sport bilan shug'ullanishni 6 yoshimdanoq boshlaganman. Erta turishdan, mashg'ulotlarga borishdan sirayam zerikmasdim. Bekorchi bo'lib ko'chalarda yurmasdim, ota-onamdan hecham dakki eshitmasdim. Ustozlarim o'gitiga amal qilib, qunt bilan mashq qilardim. Tinimsiz mashqlarim o'z samarasini berdi, O'zbekiston chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldim. O'z tajribamdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, sport bilan qancha barvaqtroq do'stlashsangiz, shuncha ko'proq yutuqqa erishasiz...

Bugun esa o'zim ham ustozman. O'ttizdan ziyod turli yoshdagi shogirdlarimga karatening fudokan turi bo'yicha saboq berib kelyapman. Ular ham sportni sevishadi, juda qadrlashadi, hurmat qilishadi. Buni ularning mashg'ulotlarga kech qolmay, orziqib kelishlaridan, mashqlarni besabab qoldirmasliklaridan sezaman.

Darvoqe, men sizlarga fudokan karatesi haqida gapirib bermabman-ku.

Karatening fudokan turi bugungi kunda Yevropa, Afrika, Osiyo va Amerika qit'asi karatechilarining olib borgan amaliy ishlari natijasida yanada

olgan. Qisqasi, fudokanning maqsadi - o'z-o'zini himoya qilishga o'rgatish va tanani har tomonlama chiniqtirishdan iborat.

To'garagimiz a'zolari oyiga 5000 so'mdan to'lashadi. Kam ta'minlangan oila farzandlari esa mashg'ulotlarga bepul qatnashadilar.

Fudokan bo'yicha Toshkentda faqat biz ukam ikkimiz (u ham O'zbekiston chempioni) faoliyat yurityapmiz. Yapon falsafasi bilan sug'orilgan karatening ushbu turini yurtimizning barcha go'shalarida rivojlantirish niyatidamiz. Harakatlarimizni Farg'ona viloyatidan boshladik...

Yaqinda federatsiyamizga Shvetsiyada bo'lib o'tadigan Jahon chempionatiga taklifnoma keldi.

Bu kabi taklifnomalar qardosh respublikalardan, shuningdek, yurtimizning turli shaharlaridan tez-tez kelib turadi. Ammo homiylarimiz yo'qligi bois, uzoq joylarga



Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumaniga qarashli 256- maktab o'quvchilarining sport murabbiysidan omadlari chopgan. Chunki ularga 5 karra O'zbekiston chempioni, 3- dan qora belbog' sohibi va fudokan karatesi shahar federatsiyasining rahbari Rustam Bekmurodov saboq beradi.

Bunday unvonlarni qo'lga kiritish uchun sport bilan necha yoshdan shug'ullangan ma'qul, degan savolga javob olishni hammangiz ham istasangiz kerak-a?

Qani eshitaylik-chi, ko'plab yosh sportchilarning sevimli ustoziga aylanib ulgurgan Rustam akangizning bu boradagi fikrlari qanday ekan:

musobaqalarga chiqa olmaymiz. Bolalarimiz esa musobaqalarni juda sog'inishgan. Tumanimizdagi beshta maktab o'quvchilaridan jamlangan terma jamoamiz bor. Uning a'zolari

allaqachon «qora belbog'» sohiblari bo'lishga tayyorlar. Lekin ularni olis Moskvaga olib borib, bu unvonni olish imkoniyatimiz yo'qligi juda alam qiladi-da.

Yurtimizda Bolalar sportiga ko'rsatilayotgan alohida e'tibor men kabi murabbiylar qalbidagi umid va ishonchni yanada mustahkamladi. Umid qilamizki, bizning shogirdlarimiz ham dunyoning nufuzli musobaqalarida ishtirok etib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'taradilar.

Ma'mura YIGITALI qizi yozib oldi.



-Men sog'lom, ko'rkam va jozibador bo'lishni xohlayman. Shuning uchun ham sportning tennis turi bilan muntazam shug'ullanaman, -deydi tengdoshingiz Gavhar.

SPORTIMIZ CHECHAKLARI

Abrorjon kelajagi porloq, umidli, yosh sportchilardan. U Ahror Tojiyev nomli 20-o'rta maktabning 1-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. 5 yoshida tatamiga chiqib, munosib raqib bilan kuch sinashgan va musobaqaning eng yosh qatnashchisi unvoni bilan taqdirlangan. Kumite bo'yicha 1 darajali, kata bo'yicha 3-darajali diplom sohibi. O'zbekiston 3-chempionatida karate bo'yicha bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan katta musobaqalarda 3-o'rinni egallab, bronza medalni, O'zbekiston kubogi kumite musobaqalarida faxrli 2-o'rinni egallab, kumush medalni qo'lga kiritdi. Hozirda Abror Ergashev Karate milliy federatsiyasi prezidenti, 6 DAN sohibi Nurxon Nafasovning eng yosh va kuchli shogirdlaridan biri. Nurxon aka o'z shogirdiga sportning barcha sirlarini qunt bilan o'rgatmoqda. Keling aziz bolajonlar, kelajakda Abrorjonning yurtimiz sharafiga himoya qiladigan kuchli sport yulduzi bo'lib yetishishiga birgalikda omad tilaylik.

Gulchehra BEGALIYEVA,
Toshkent San'at institutining 1-kurs talabasi.

Shahnoza Nizomova. 1987 yilda Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi Usmon Yusupov mahallasida tug'ilgan. Oilada uchinchi farzand. 2000 yildan buyon maxsus jismoniy tayyorgarlik markazida sportning mia-tay, kikkboxing hamda qo'l jangi turlari bilan muntazam shug'ullanib keladi. Birinchi murabbiyi Adham Rashidov. 2000 yil bolalar va o'smirlar musobaqasida ilk bor ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2002 yili Qibrayda o'tkazilgan respublika chempionatida chempionlik shohsupasiga ko'tarildi. 2003 yili Namangan va Andijonda o'tkazilgan respublika

championatining reyting jangi g'olibi va kumush medal sohibasi bo'ldi. Ayni kunlarda Shahnoza jahon chempionatiga qizg'in hozirlik ko'ryapti. Kelajakdagi orzusi - Muhammad Alining qizi Laylo Alidek bokschi bo'lish. Maqsadi - Olimp cho'qqisini egallash.

Bir kuni maktabda duvduv gap tarqaldi. Nima emish, Shahnozani sinfdosh o'g'il bolalar yakkama-yakka kurashga chaqirishganmish. Uning bolalarga, roziman, deya javob qaytargani haqidagi gapni eshitib, tomoshabinlar soni yanada ortibdi. Darsdan



so'ng, belgilangan joyda jang boshlanibdi. Buni qarangki, murosasiz bellashuvda Shahnozaning qo'li baland kelibdi va o'zining yaxshigina bokschi ekanligini o'g'il

«LAYLO ALIDEK BO'LOLSAM»

bolalarga ko'rsatib qo'yibdi. Shu voqea sabab bo'ldi-yu, Shahnoza o'z kuchiga, irodasiga qattiq ishonib boshladi. Hech kimga sezdirmay «Dinamo» sport sog'lomlashtirish majmuasiga keldi. Uni iliq qarshi olgan murabbiy Adham Rashidovning ilk maslahati shunday bo'ldi: «Mashqlar qiyin, bellashuvlar yanada og'ir. Irodali, chidamli bo'lsanggina, o'z maqsadingga erishishing mumkin».

Murabbiyning ishonchini oqlashga astoydil intilib, biroz olisroq bo'lsa-da,

Kelajak qanotlari

mashg'ulotlarga tinimsiz qatnayotgan bu qizcha Adham akani ham qiziqtirib qo'ydi. U endi Shahnozadan yaxshi sportchi yetishib chiqishiga ishonardi. Musobaqalar, chempionatlar Shahnozani tengdoshlariga tanitdi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik markazidagi mia-tay, kikkboxing, qo'l jangi musobaqalarida u bir necha bor g'oliblikni qo'lga kiritdi. U hozirgi kunda Mia-tay (Tailand sport o'yinlaridan biri) sport turi bo'yicha bo'lib o'tadigan Jahon chempionatiga jiddiy

tayyorlanmoqda. Shahnoza bilan uchrashganimizda, odatda qizlarimizning nafis va jozibador sport turlari bilan shug'ullanishlariga ko'nikib qolganimiz uchunmi, uning yigitlardek shashti, baquvvat gavdasidan hayratlandik.

O'ziga oro berishdan ko'ra, sport zalidagi mashqlarni afzal ko'radigan qibraylik Shahnoza Nizomovaga biz ham omadlar tilab qolamiz.

M. MADRAHIMOVA.

SALTANAT AYA SALTANATI



Insonlar ikki toifa bo'lishadi: kimlardir hayotdan albatta manfaat qidirib, birim ming, mingim tuman bo'lsin, deya yashaydilar. Bo'lgan sari yana bo'lay, deydilar. Lo'nda qilib aytganda, yeyish uchun yashaydilar. Yana bir toifa insonlar borki, ular hayotdan mazmun, ma'no axtarib, insonlarga mehr-muruvvat ulashib yashaydilar. O'zlarigina emas, atrofdagilarni ham shunga da'vat etadilar. Bunday sahovatli insonlarni hazrati insonlar deb ataymiz.

Hikoyamiz qahramoni Saltanat opa Siddiqova ham ana shunday hazrati insonlardan biri. O'zining 12 nafar o'g'il-qizi bo'la turib, nochor oilalarning yana ikki nafar farzandini o'z bag'riga olgan, juda barvaqt beva qolsa-da, farzandlarini halol mehnati bilan komil insonlar qilib tarbiyalagan ayolni yana qanday atash mumkin?!

Bu ayol kim ekan o'zi, deysizmi? Siz bu onaxonni yaxshi taniysiz. Ularni oynayi jahon orqali juda ko'p ko'rgansiz, qilayotgan xayrli ishlari bilan tanishgansiz. Mustaqillik tantanalarida, Navro'z bayramlarida «Kamalak» nomli oilaviy folklor dastasi bilan birgalikda katta sahnaga chiqib, yurtimizga tinchlik, dasturxonimizga qut-baraka, sizni bizga, yurtboshimizga omonlik tilab, duoga qo'l ochgan onaxonimiz u. Tashqaridan qaraganda hamisha xushchaqchaq, shodu xurram onaxonning ichida bir olam dardlari, armonlari

borligini u bilan suhbatdosh bo'lgan odamgina biladi. Saltanat opaning bolaligi suronli urush yillariga to'g'ri keldi...

-La'nati urush dahshatlarini, front ortidagi odamlarning mashaqqatli mehnatlarini, qiyinchiliklarini, kunjara yeb, qorni shishib o'lgan

Alla, laparlar aytib,
O'stirdingiz siz bizni.
Polvonim, gul-g'uncham deb,
Sevasiz o'g'il-qizni.
Buvijon, baxtimizga,
Siz doimo sog' bo'ling.
Rohatimizni ko'rib,
Biz suyangan tog' bo'ling.

Sitora SIDDIQOVA,
Toshkentdagi 62 - maktabning
5 - sinf o'quvchisi.

odamlarni o'z ko'zim bilan ko'rganman,-deya xotirlaydi onaxon. Ocharchilik bo'lsa-da, odamlar birlariga juda mehribon, mehr-oqibatli edilar. Bitta zog'ora non yopsak, qo'ni-qo'shnilar bilan, bir qozon jo'xori sho'rva pishirsak, butun mahallamiz bilan birga baham

Onalik martabasi

ko'rardik. Yiqilganni suyab, xayr qo'lini cho'zishni o'z insoniy burchimiz deb bilardik. Yodimda bor, uylarimizning eshigiga umuman qulf osilmasdi. Hozir Yaratganga ming bora shukrlar bo'lsinki, to'qchilik, farovonlik zamonada yashayapmiz. Lekin nazarimda oramizda mehr-oqibat yetishmayotgandek...

Baxtiyor bolalik onlari nasib etmagan Saltanat opani voyaga yetgach, hayotning yana bir jiddiy sinovi kutib turardi.



Turmush o'rtog'idan barvaqt ajralib, bir etak bola bilan beva qoldi. Bir qo'lida ketmon, ikkinchi qo'lida ikki oylik kenjatoyini ko'tarib, kattaroqlarini yoniga olib tong qorong'usida dalaga otlanadi. Oqshom cho'kkanda tuproqqa qorishib uyga qaytadi. Ko'ngli to'lib, yig'i kelganda o'zini bosadi, yig'lash o'rniga g'am-anduhlarini kuyga solib, lapar xirgoyi qiladi, go'dagiga allalar aytadi:

Bir qo'lida ketmonu, bir qo'lida go'dagi bo'lgan onangni unutmagin, alla-yo alla...

Yuragi jo'shib, dilidagi gaplari toshib aytgan laparlari, allalari soni ortgandan orta bordi. Ular taniqli hofizimiz Komuna opa Ismoilovaning ham diqqatini tortib, Saltanat opaga ustozlik qila boshladi. Keyinchalik qizlari, nabiralari ham onaxonga jo'rovoz bo'lib, xalq termalari, laparlaridan kuylay boshlashdi.

«Kamalak» oilaviy folklor dastasi shu tariqa shakllandi. Dastlab Namangan, Andijon, Farg'ona kabi yurtimizning turli viloyatlarida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda qatnashib yurgan dasta, keyinchalik Germaniya, Turkiya, Polsha, Hindiston, Bolgariya kabi o'ndan ortiq mamlakatlarda bo'lib o'tgan folklor festivallarida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

Ko'plab yoshi ulug'lar singari qarilik gashtini surib, bekor o'tirish onaxonga xos xususiyat emas. Uylarida tikuvchilik sexi ochib, qizlari, kelinlari, nabiralari boshchilik qilyaptilar.

Sir emaski, ko'pgina xonadonlarimizda oila, farzandlar, hatto nabiralar davrasida ham kimlardir g'iybat qilish, ularning xatti-harakatlarini muhokama qilish hollari oz bo'lsa-da, uchrab turadi. Saltanat opaning katta, totuv oilasida g'iybatga, fisqu fasodga o'rin yo'q. Yumushlaridan ortib, qo'llari bo'shadi deguncha jajji nabiralari

yonlariga chorlab, kuy-qo'shiq boshlab yuborishadi. Onaxonning 54 nafar nabira, 3 nafar abiralari bor. Ularning har biri o'zga bir olam, o'z qiziqishlari, sevimli mashg'ulotlari, mehr qo'ygan kasblari bor. Sitora, Go'zal, Madina va Malikalar buvisi doirada chalgan kuylariga sho'xchan raqsga tushishsa, Shahnoza o'zi yozgan she'rlarni



kuyga solib aytishga harakat qiladi. So'ngra jajjigina Behzodning bog'chasida bo'lib o'tgan qiziqarli

Har yili bayram arafasida Saltanat buvijonimni birinchilardan bo'lib tabriklashga harakat qilaman. Lekin biz hali uyqudan uyg'onmasimizdan, buvijonim xonamizga kirib, barchamizni birma-bir tabriklab chiqadilar. Sovg'a-salomlar ulashishni ham kanda qilmaydilar.

O'ylay-o'ylay bu yil buvimni gazeta orqali tabriklashga qaror qildim. Og'zaki tabriklasak, birozdan so'ng unutilib yuborishlari tayin. Gazetada chiqsa, uni esdalik uchun olib qo'yadilar.

Mening munisgina buvijonim! Sizni onajonlar, bahor va baxt bayrami bilan chin dildan tabriklayman. Oilamiz baxtiga omon bo'lib, hamisha xonadonimizning farishtasi, ko'rki bo'lib yuravering. Biz - nabiralar kamolini ko'rib, quvonib yuring.

Sizni samimiy qutlab, nabirangiz MADINA.

voqealarga quloq tutishadi...

Darvoqe, Saltanat opaning uzoq yillik mehnatlari samarasi - 2000 dan ziyod eksponatlari bo'lgan uy-muzeyi haqida ham eshitgandirsiz. Axir uning dong'i nafaqat yurtimizga, chet ellarga ham ketgan. Uy-muzeydagi 102 ta eksponatning hozirgi kunda Amir Temur nomli Davlat muzeyidan o'rin olganligini onaxon faxr va iftixor bilan so'zlaydilar.

Saltanat opaning qalbida bir orzu bor: kelgusida shahrimiz markazida tovuqlar sayr qilib yuradigan mo'jazgina bog' barpo etilsa, uning o'rtasida bir muzey tashkil qilinsa-yu, undan umr bo'yi yiqqan eksponatlari joy olsa. Toki tillolarga topilmas bu

noyob durdonalarimiz yo'qolib, chetga sotilib ketmay, kelajak avlodlarimizga bus-butunligicha yetib borsa...

Biz ham Saltanat opaning bu ezgu niyatlari ijobatini tilab qolamiz. Oramizda ulardek mehr-muruvvatli, imon-e'tiqodli hazrati insonlar ko'payaversin, deymiz.

Feruza JALILOVA.

So'zi hikmatlarga boy,
Mehribonim, buvijon.
Uyimizga ko'rk, chiroy,
Jonajonim, buvijon.

Shahnoza SIDDIQOVA,
62 - maktabning
3 - sinf o'quvchisi.

OQPOSSHONI TITRATGAN AYOL

Tariximizni o'rganamiz.

Tariximizga nazar solsak, ayollarning o'rni u darajada sezilarli bo'lmagan. Ammo ular eng kerakli paytlarda hal qiluvchi rolni o'ynaganliklarining guvohi bo'lamiz.

Massagetlar malikasi To'marisning ozodlik uchun oqilona kurashgani haqida har xil afsonalardan tashqari yunon tarixchisi Geradotning «Tarix» kitobidan ham o'qiymiz. Saroymulxonim jahongir Temurga eng nozik vaziyatlarda qimmatli maslahatlar berib, janglarda g'olib bo'lishida xizmati katta bo'lganini muarrixlar tez-tez takrorlashgan. Mohlaroyim - Nodira ham o'lkamizda siyosiy va ma'naviy tanazzul avj olib turgan bir paytda Umarxon va o'g'li Muhammad Alixonlarni odilona islohotlarga chorlaganligi, xonlikda adabiy muhit yaratib, inqirozning oldini olishga qaysidir ma'noda erishganligini bilamiz.

Quyida Nodirabegim muhitida dunyoqarashi shakllangan, o'sha davr xonlari alohida hurmat qilgan ayol Qurbonjon dodhoh haqida so'z yuritmoqchimiz.

DUNYONI SO'RAGAN TURKIYLARIMIZ

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Chor Rossiyasi Turkiston o'lkasi shaharlarini birin-ketin bosib olaverishi, musulmonlarga qilayotgan shafqatsiz zulmi hamda aholini qirg'in-barot qilishi Qurbonjonning ham yuragiga g'ulg'ula solib qo'ydi. U o'g'illari va mardona xalqi bilan mamlakatni yovlardan himoya qilish uchun qat'iy kurashga bel bog'ladi. O'sha davrdagi hamma mazlum xalqlar singari uning qo'shinlari ham barobar kuchsiz edi. Ammo boqib, o'limni sharaf bilib yigitlarning jasorati hayratga tushirdi. Chimmatga musulmon zaifaning askarlari shon-shuhratga burkangan o'ylantirib qo'ydi. Ana mustamlakachilar mahalliy hisoblashmasdan boshqa tushunishdi.




g'animlardan bir necha dushmanning ko'ziga tik kurashgan botir bosqinchilarni ham o'ranib yurgan bir ko'rsatgan qahramonliklar Oqposhshoni ham shundan keyin xalq bilan ilojlari yo'qligini

Manaman degan xonlarni, mahalliy hokimlarni zir titratgan, yerli xalqni zarracha ham nazar-pisand qilmagan o'ta shovinist general Skobelev malika bilan uchrashishga, alohida hurmat-ehtiromlar ko'rsatishga majbur bo'ladi. General kirib kelgan paytda paranjiga o'rangan, qomatini tik tutib, boshi sal egik holda bir ayol turar edi. Shu chog'da u generalga qarata qirg'izchalab shunday dedi:

-Muhtaram general, agar bizni bo'ysundiraman deb kelgan bo'lsangiz,

QURBONJON DODHOH

Bu qirg'iz ayolidan nafaqat mahalliy xonlar, balki o'z davrining qudratli imperatori Oqposhsho ham doimo cho'chigan. Turkiston general-gubernatorlari u bilan jiddiy hisoblashishga majbur bo'lganligini tarixdan o'qiymiz.



Qo'qon xoni Muhammad Alixonning ishongan beklaridan bo'lgan Andijon begi Olimbek o'z nikohiga olgan paytda bu qirg'iz qizi hali tortinchoqqina yosh qiz edi. Uning hayotga nisbatan qarashlari Nodira va Uvaysiyalar davrasida shakllandi.

Qurbonjon bekligni boshqarishda, xalq ahvolini yaxshilashda eri bilan yelkama-yelka turib xizmat qildi. Lekin amir Nasrullo tomonidan Ma'dalixon va Nodiralarning qatl qilinishi xonlikdagi muhitni parokanda qilib yubordi. Olimbek ham o'sha davrdagi fitnalar qurboni bo'lgach, tul qolgan Qurbonjon farzandlarini olib o'z vatani Oloyga ketadi va u yerda bir qancha qirg'iz qabilalarini birlashtirishga erishadi. Malikaning uddaburonligiga qoyil qolgan amir Nasrullo uning davlatini tan olib, Kitob va Shahrisabz beklari qatori ko'plab mulozimlari ishtirokida unga «dodhoh» unvonini beradi. Ayol kishiga bunday harbiy unvon berish hali tarixda yuz bermagan edi.

ZARBOF TO'N NAFRATI

Skobelev tilmochga qarab:

-Dodhohga ayting, men uni jasur ayol bo'lishi bilan birga ona sifatida ham hurmat qilaman. Biz mard dushmanlarni e'zozlaymiz. Agar o'g'illari bizga qarshi kurashishni to'xtatsa, men ularni botirlar qatorida mukofotlayman. Malikani esa hozir dasturxonimga taklif etaman.


Mehmondorchilik so'ngida general dodhohning yelkasiga o'z qo'llari bilan zarbof to'n yopadi. Bu - xavfli dushmanlarni tinchitib qo'yish uchun qilinadigan qabih siyosat edi. Buni juda yaxshi anglagan Qurbonjon umrining oxirigacha bosqinchilarga nisbatan nafrati so'nmadi. Keyinchalik ham xalq ozodligi uchun bo'lgan qo'zg'olonlarda dodhohdan maslahatlar olinardi. Tomirida o'zbek va qirg'iz qoni jo'shib turgan o'g'illari esa Dukchi eshon g'azovotida ham, boshqa qo'zg'olonlarda ham hamisha oldingi saflarda bo'lishdi. Qardosh qirg'iz qizi, o'zbek kelini Qurbonjon dodhoh nafaqat o'zbek va qirg'iz, balki butun turkiy xalqlar erkini deb kurashgan dovyurak ayol. Uning jasorati avlodlariga doimiy saboq bo'lib qolgan.



Anvar YUSUF, O'zMU jurnalistika fakulteti tolibi.

SIZGA BO'LSIN DUNYONING SHODLIGU BAXTI

Mening ismim - Humoyun, familiyam Mirzakarimov. Yoshim besh yarimda. Endi-endi yozishni o'rganyapman. 100 gacha sanashni bilaman. Alisher Navoiyning g'azallaridan, Uvaysiyning chistonlaridan bir nechtalarini, ruscha she'rlarni yoddan bilaman. Bog'chamizda tashkil etilgan ingliz tili to'garagiga ham qatnashyapman. Voy-bo', juda aqlli bola ekanmi, deyayotgandirsiz? Men sizga aytсам, yaqin-yaqinda ham bularning



hech qaysisini bilmas edim. Hamma yutuqlarimga Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumani dagi «Mohitabon» nomli 441-bog'cha sabab bo'ldi. Bog'chamizga Mixaylenko Tamara Grigorevna mudiralik qiladi. Bog'cha opam Alxanova Olesya Mixaylovnadan esa savodni o'rganyapman. Hozir mendan: «Humoyun, bog'cha yaxshimi?», deb so'rasha, «Ha, zo'r», deyman. Peshinda birinchi-ikkinchi ovqatlar

berilishi yaxshi-da. Enagamiz Iroda opa: -Kim yana ovqat yeydi?- deb so'rganlarida:

-Man, man, man,- deb baqiramiz. Biz birinchi ovqatni bog'chada o'ynayotganda kuch bo'lishi uchun, qo'shimchani yugurishga, ikkinchi ovqatni uygacha yetib kelish uchun yeymiz.

Bog'chada har bayramni tantanali o'tkazamiz. «8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni»ni ham ajoyib nishonladik. Musiqa xonasiga just-just bo'lib, qo'shiq aytib kirib keldik. Keyin onalarga bag'ishlangan she'r-qo'shiqlarimizni navbat bilan aytdik. «Teskari kiyinish» o'yinimiz barchani kuldirdi. Musiqa o'qituvchimiz Nigora Abramovna o'g'il bolalar o'yinini sahnalashtirishga ancha vaqt sarfladilar-da, o'ziyam. Shuning uchun bo'lsa kerak uslubchimiz Natalya Ivanovna bizni rosa maqtadilar. Bayram oxirida rangli qog'ozdan o'zimiz yasagan gullarimizni onalarimizga hadya etdik.

Ana shunaqa gaplar. Bog'chamda har bir kunim mazmunli va maroqli o'tadi. Faqatgina tushlik vaqtida uxlashni yoqtirmayman.

Yolg'ondan ko'zimni yumib yotaman. Bog'chadan uyga ketayotganimda buvijonimga yangi o'rgangan narsalarimni so'zlab beraman.

Voy, bitta gap esimdand chiqibdi. Mening juda ham shirin singilcham bor. Ismi - Laziza. Har kuni bog'chadan kelib, «asalim, shakarim» desam, rosa kuladi. Lekin baqirib bir yig'lasa, oyimdan boshqa hech kim ovutolmaydi. Yaxshiyamki bu dunyoda mehribon onajonlarimiz bor. Baxtimizga doimo sog'-omon bo'lishsin.

MAHLIYO yozib oldi.

-Men 1974 yil Toshkent shahrida tug'ilganman. Jurnalistika sohasida mehnat qilayotganimdan faxrlanam. Chunki kasbimni juda sevaman. Turmush o'rtog'im Alisher akam muhandislar. Ammo kasbimni juda qadrlaydilar. «Tong yulduzi» muxlisi - 8 yoshli o'g'lim Sherzodjon ham mening O'zbekiston televideniyesida chiqishimga befarq emas, deydi Nilufar opangiz. Oilamizda ijodkorlar bo'lmasa, yoshligimdan jurnalist bo'lishni niyat qilardim. Maktabda ham adabiyot, tarix fanlariga qiziqishim behad baland bo'ldi. O'qishda ham, jamoat ishlarida ham doimo oldingi safda bo'lishga intilardim. Bir kuni biologiya fanidan o'zim o'ylagandek a'lo baho ololmadim. Uyg kelib rosa yig'ladim. Baho uchun emas, ko'proq shug'ullanmaganim uchun o'zimni kechirolmagandim. Onajonim bo'lsa, boshlarimni silab, «astoydil harakat qilsang, hammasini uddalaysan», dedilar. Shu-shu bir ishga kirishadigan bo'lsam, astoydil harakat qilishga odatlandim. Natija yomon bo'lgani yo'q. 7-sinfda o'qiyotgan paytimda ilk marotaba zangori

NILUFAR



Bizning kasbimizda eng asosiysi ma'lumot to'plash va uni ifoda eta bilishdir. Ikki og'iz so'z bilan, ravon va lo'nda qilib, albatta. Buni uddalay olganlarni - telejurnalist deyavering. O'n sakkiz yoshimda to'g'ridan-to'g'ri efrigra chiqib, ko'rsatuv olib borganimni hozir faxr bilan aytib yuraman. Bunda ustozlarimning xizmati katta bo'lgandi. Rejissyor Karomat G'oyibberdiyeva bilan hamkorlikda muhabbat mavzusidagi «Farishtam» va «Nogironlar» uyushmasi bilan hamkorlikdagi dasturlar mustaqil ishlashimda ishonch bergan. Bu ishonchni yosh ijodkorga dalda berib turuvchi qadrdon hamkasblarim qalbimda uyg'otishgan. Hassos ustozlarga duch kelganim eng katta omadim edi.

-Bolalikdagi o'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi do'stlikka qanday qaraysiz?

-Mening dangal, o'g'il bolalarga xos tavakkalchiligimni sezib shunday savol beraysiz-a? O'g'il bolalarning sodiq do'st bo'lishdek fazilatlarini juda qadrlayman. Mening ham shunday do'stlarim ko'p. Qizlar bilan arazlashib qolsak, yarashish osonroq, mabodo o'g'il bolalar bilan xafalashib qolsak, bu arazning tugunini yechish mushkulroq bo'lardi. Ammo ular hamisha bizni avaylashardi. Sinfoshlarimning mardligi, o'ktamligi, o'zini tuta bilishi hammaning havasini keltirardi. Bu fazilatlar avvalo oiladagi tarbiyadan boshlansa, maktabda esa ustozlarimizning har tomonlama o'rnak ko'rsatishlarida mustahkamlanib borardi. Sinfimizdagi bolalarning barchasi o'qish borasidayam, jamoat ishlaridayam oldingi qatorda bo'lishga intilishardi. Endi ulg'ayib, ijodiy guruhimiz bilan respublikamizdagi qator ilm maskanlari, tashkilot va korxonalarda bo'lib, ko'rsatuvlar tayyorlaymiz. O'g'il bolalar bilan oson til topishim sababli guruhimizdagilar

Aziz qizlarjon, siz sarlavhani o'qib-gap yoshlar kanalining «Begoyim» ko'rsatuvi haqida ekanligini sezdingiz-a? Juda to'g'ri. Jurnalist bo'laman degan qizlar ko'rsatuv boshlovchisi Nilufar opasiga o'xshagisi kelsa, onajonlar ham bu ko'rsatuvni zo'r qiziqish bilan ko'rib dildan zavqlanadilar. Chunki muallifi did va farosat bilan aql ulashar ko'rsatuv tayyorlay oladi-da.

bilan aka-singildek bo'lib ketganman. Ertangi kunimiz egasi bo'lmish siz aziz bolajonlarga g'amxo'rlik qilayotgan fidoyi ayollar faoliyatini to'laqonli yoritishga intilarkanman, eng avvalo ularning mehribon va mehnatkashligiga urg'u beraman. O'z kuchi, halol mehnati bilan o'z baxtini topgan insonlar bilan uzoq-uzoq suhbatlasharkanman, ular o'z farzandlarini maqtab gapirishlarini sevaman. Onalar farzandini maqtasa, dildan yosharib, yashnab ketishadi. Istagim, aziz bolajonlar, o'z onangiz ko'ngliga yo'ying toping. Ularning mehnat maydonidagi yutug'iga, farovon va baxtiyorligiga hissa qo'shing.

Kundaliklaringizdagi qator-qator «4» va «5» baholaringiz bayram kunlarida ular uchun eng oliy sovg'angizdir. Yoshi ulug' kishilarga ko'maklashib, olqish olsangiz, onajonlaringiz yanada quvnan ketishadi. Sevimli «Tong yulduzi» ngizda sizlarni maqtab yozishsin. Bu maqtovlarga loyiq bo'lish uchun izlanish, intilish, bir so'z bilan aytganda HARAKAT qilmoq shart. Siz buni albatta uddalaysiz.

Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Temur vafotidan so'ng shahzodalar orasida ko'tarilgan zo'r nizo yong'inida Shohruh g'olib chiqdi. Temur davlatining gavhari atalgan Samarqandni o'g'li Ulug'bekka topshirib, o'zi Hirotga ko'chdi va unda go'zal bir maskan yaratdi. Oz muddatda Hirot ko'rkam, obod bir shahar bo'ldi.

-Turkiston diyoringning yirik yulduzi Ulug'bek Mirzoga Samarqandni ravo ko'rdik, Hirot esa davlatning quyoshi bo'lib yarqirasin: bu shahri azimni har bir o'g'lonimizga topshurmiz, deb g'urur-la maqtanib qo'yardi ba'zan Shohruh.

Shohruh goh-goh bosh ko'targan shahzodalar va ba'zan chigirtka kabi bostirib kelgan mo'g'ullar, Oltin O'rda ila jang qila-qila hokimiyatni uzoq yillar o'z qo'lida saqlab keldi. Endi u keksaygan, bukchaygan, ammo hanuz jangda o'zi ot surar, qilich tortar edi.

Shohni ulug'lar, jangda pishgan barloslar, beklar qurshagan. O'qtin-o'qtin andak yaxgulob tortib qo'yardilar.

-Qavm buzildi tag'in, davlatda tartib, nizom yo'qoldimi, darhol jazo qilichini ishga solmoq zaruriyati tug'iladi, deya noxush tovushda so'zlar shoh.

-Andak sabr lozimdur. Ulug' shohim, forsiylar g'alayon boshlamoq xavfi ham bordur, deya yumshoq ohangda javob qildi vazir.

Bir oz sukutdan so'ng uzun so'lish oldi shoh, uzoq cho'zilgan majlisdan horiganligini sezgan har kimsa biror so'z qotishdan hayiqardi.

-Siyosat olami shunday... Jabhalarga qurol-aslahla tayyor qilinsin!- dedi oxiri qat'iy.

Barcha o'rnidan turib qo'l qovushtirar ekan, podsho sekin eshik tomon yurdi. Bukchaygan qaddida zar to'n, etaklari yerga surgalur, oq shohi sallada yirik gavhar toj yarqirar edi, qo'llarida esa asl

toshlardan terilgan tasbeh...

Darhol eshikni ta'zim ila ochib yuborgan va qo'lini ko'ksiga qo'yib egilgan eshik og'a oldidan o'tib, Shohruh ikkinchi xonaga kirar ekan, ta'zimda

bukilgan beklar, shahzodalar, bekdodalar yonida yana to'xtadi:

-E-ha, siz ham shu yerdamisiz? Qachon keldingiz?-dedi u ta'zimda bukilgan Abdullatifga tikilib.

-Muborak huzuringizga keldim, bobo hazrat. Samarqand tuzuk, lekin g'avg'osi ko'p, deddi sekin shahzoda ko'zlarini yerdan uzmasdan.

Atrofdagilar fikrlarini hatto ko'zlarining imosi bilan ham bir-birlariga anglatishdan o'z, jim qolgan edilar, shoh og'ir sukunatni buzib so'radi:

-Qalay, o'g'limiz shoh Ulug'bek shihatilalar?

Kelurmikanlar deb ko'z tutmishdim... Sog'indim...

-Alhamdulillah padari buzruk salomatlar.- Bir on sukutdan so'ng, past ovoz bilan,- mashg'ulotlari yolg'iz

ALISHERNING YOSHLIGI

Oybek

Yulduzlardur,-dedi va zarbof to'ning etaklarini tuzatib, yoqut qadalgan nimrang shohi sallasini silab qo'ydi shahzoda.

Uning yuzidagi istehzoli ifodani barcha payqagan edi.

Bafurja

so'zlashurmiz,-dedi noxush tovush ila nabirasining o'rinsiz gaplaridan ranjigan shoh va to'rga o'tib, taxtga o'tirdi va imo bilan ruxsat bergach, shahzodalar, beklar, shayxulislam, ulamo, shayx va barloslar, har qaysi o'z mavqeiga muvofiq tartibda joylashdilar.

Chuqur ta'zim ila eshik og'a shoh oldida bukildi:

-A'lo hazrat, ijozat bersalar, chinelchilari, Arabistondan kelmish yuksak darajali vakillar, turk poshsolari, Oltin O'rda beklari muntazirdir.

Shohruh imo qilgan on eshik og'a orqasi ila yurib, eshikni ochdi.

Saroy an'anasiga xos tartib ila har bir mamlakat vakili qabul etilib, savdo va tijorat ishlarini yanada kengaytirish

RAYHON

Quyosh nurlarin sochib,
Ufqqa ketar chog'ida,
Yer chopib, jo'yak ochib
Rayhon ekdim bog'imga!
Kundan-kunga bo'y cho'zib,
Rayhonim tez shox otdi.
Ko'kda oymoma suzib,
Xush bo'yini uyg'otdi.
Quyosh erkalab uni
Shu'la sochdi ipakdek.
Shu'lalarga chirmashib
Rayhonim bo'y cho'zdi tik.
Shamol esib yon-verin
Siypaladi qitiqlab.
Buvim duo qiladi
Yegan chog'i qatiqlab.
Uyg kirgan-chiqqanni
Chulg'ar rayhon bo'ylari.
Bo'lib qoldim men chini
Maqtab-maqtab so'ylari.
Rayhonidan ko'p xursandman,
Hidlab quvonar oyim.
Rayhon ekkanim bo'lsin
Bahor kelganda doim.

UMIDA.



USTOZ XABAR QILADI

Yangi jamiyat bunyod etar ekanmiz, eng avvalo o'quvchi-yoshlarimizni bilimli, yangilikka intiluvchan, komil insonlar qilib tarbiyalashimiz lozim. Bu esa biz ustoz-murabbiylardan alohida e'tibor, tinimsiz mehnatni talab etadi. Maqsadga erishishimiz uchun o'quvchilarga ta'lim beribgina qolmay, darsdan tashqari tadbirlar, uchrashuv va musobaqalar tashkil qilishimiz kerak. Bayramlar, tantanalar farzandlarimizning

ham ilmiy, ham badiiy estetik tafakkurini, ma'naviyatini boyitadi. Ularda ko'tarinki kayfiyat hosil qilib, o'z qobiliyatlari, ijodkorliklarini namoyish etish imkoniyatini beradi. Demak, bunday tadbir va tantanalarni tez-tez o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Yaqinda kollejimiz madaniyat saroyida o'tkazilgan «She'riyat mulkingning sultoni» deb nomlangan tadbirimiz ham juda maroqli o'tdi. Kechamizni ochib bergan kollejimiz direktori professor S.M.Qosimov o'tganlarni yod etish, tiriklarni qadrlash lozimligi haqida gapirdilar. Kechaning juda qiziqarli, maroqli o'tishida ijtimoiy fanlar kafedrasining fidoyi o'qituvchilaridan Ma'muraxon Usmonova, Viktoriya Kashatova, Bahoroy Eshboltayeva, kutubxona mudirasi Mamlakat opa Alimovalarning xizmatlari katta bo'ldi. Kuy va qo'shiqlari, yod olgan she'r, g'azallari, sahna ko'rinishlari bilan kechaga yanada fayz kiritgan Jamshid (Akbarov, Shavkat



Yo'ldoshev, Dilnoza Ernazarova, Ashirgul Shoymardonova, Zilola Po'latova, Farzoda Mahkamova singari o'quvchilarimizning nafaqat bilim olishga, balki san'atga, adabiyotga ham mehr, ishtiyoqlari balandligiga guvoh bo'ldik.

Shuningdek, Z. M. Bobur tavalludining 521 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan «Eng yaxshi kitobxon» tanlovimiz ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda, bunday tadbirlar ustoz shogirdlarning o'zaro muloqoti yaxshilanishiga, ular orasidagi samimiyatning, mehr-oqibatning yanada ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Yulduzxon MIRSOBIROVA,

Toshkent Iqtisodiyot kollejining «Ijtimoiy fanlar» kafedra mudirasi.



So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiyga bag'ishlangan tadbirlar hali hamon davom etmoqda. Shunday tadbirlardan biri Toshkent Yuridik kolleji 1-bosqich talabalari o'rtasida «Quvnoqlar va zukkolar» ko'rik-tanlovi ko'rinishida o'tkazildi. Bunda «Navo» va «Foniy» guruhlari o'zaro bellashdilar. Tadbir Gulnora Shomalikxo'jayeva, Jamshid Nasrullayev, «Ma'naviyat va ma'rifat» bo'limi xodimlari, 1-bosqich dekanati, «Kamolot» YOIH raisi Alimardon Hojiyev va boshqalar ishtirokida o'tdi. G'olib guruhga kollej tomonidan qimmatbaho sovg'alar va faxriy yorliqlar topshirildi.

Abdushukur SHAFQAROV,

Toshkent Yuridik kolleji o'qituvchisi.

Suratlar muallifi Xolmurod TOSHMUHAMMEDOV.

Ta'zim va tahsin

Yaqinda O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyida ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiyning tavalludiga bag'ishlab «She'riyat dahosiga ta'zim va tahsin» nomli adabiy-badiiy kecha o'tkazildi. Bu tadbirga o'quvchilar puxta tayyorgarlik ko'rgan edilar. Kechada O'zbekiston xalq shoiri Normurod Narzullayev, taniqli san'atshunos olim, dramaturg, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Bahriddin Nasriddinov va O'zMUning navoiyshunos professor, ustozlari mehmon bo'lishdi. O'tkazilgan bu tadbir, shuningdek, Toshkent madaniyat kolleji o'qituvchi va talabalari ham ishtirok etdilar. Litsey o'quvchilarining badiiy chiqishlari, g'azalxonlik mushoiralari, sahna ko'rinishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, qiziqarli savol-javoblar, bahs-munozaralar g'oyat qiziqarli bo'ldi. Bunday tadbirlarning tez-tez o'tkazilib turishi, o'quvchi-yoshlarning buyuk daholarimiz merosini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Umida SHODIYEVA,

Sobir Rahimov akademik litseyining 205-guruh talabasi.

MEHR KUCHII

(Hikoya)

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Shundan so'ng Gulchehra, ikkita «dum»i va Qahramon Ilhomjon tomon kela boshladilar.

«Yo'q, kerak emas! - Ilhomjonning miyasiga kelgan birinchi gap shu bo'ldi. - Gulchehra hoyna-hoy Qahramon boya meni «qiltiriq» degani uchun kechirim so'rattirgani olib kelayotgandir. Kerak emas! Qiz bola meni o'z himoyasiga olsa uyat-ku, sharmandalik-ku! Nahotki Gulchehra meni o'sal bo'lishimni xohlaysa. Qahramondan xafa emasman. Innaykeyin, birovni kechirim so'rashga majburlashni yomon ko'raman».

Miyasidan shu fikrlar kechgan Ilhomjoni g'ulg'ula, vahima bosdi. Ko'z o'ngi qorong'ulashib, hovli go'yo chirpirakdek aylandi, yiqilib tushmaslik uchun o'tirgan kursisini ikkala qo'li bilan mahkam qisib ushladi. Yuragi gupullab urib hushidan ketdi. Ammo bu gal tez - bir lahzada o'ziga keldi.

Yaxshiyam hali Gulchehra va o'rtog'lari unga yaqinlashib ulgurishmabdi. Ilhomjon hushyor tortib, o'rnidan turdi, kelayotganlarni qarshi oldi.

-Kutib qolmadingmi? - kela solib so'radi Gulchehra xushhollik bilan.

-Yo'g'e, futbolni tomosha qilib o'tirdim, - dedi Ilhomjon.

-Nima gap bor ekan deb hayron bo'lgandirsan? - Gulchehra jilmayib maqsadga ko'chdi. -Gapim shuki, vaqting bo'lsa ertaga bizlarnikiga chiq, besh-oltita qizlar, bolalar soat beshlarga yig'ilmoqchimiz. Mana, Qahramonni ham aytganman.

-Ha, men ham bo'laman, chiqqin, o'zingni chetga tortib yurmasdan, bolalarga qo'shilgin, - dedi Qahramon, - shu paytgacha otingni ham bilmaymiz.

Shu tariqa Qahramon boyagi qilgan qo'rsiligini yuvib yubordi. Oqila Gulchehra Qahramonni kechirim so'rattirgani emas, Ilhomjon bilan yarashtirgani olib kelgan edi.

-Bo'пти, chiqaman, - Ilhomjonning ko'ngli ko'tarilib ketdi, -faqat bilsa bo'ladimi nima munosabat bilan yig'ilayapsizlar?

-O'zimiz shunday, bir pas o'yin-kulgi qilib o'tirmoqchimiz, -dedi aniq javobdan qochib Gulchehra.

-Bekitmay qo'ya qol, - Qahramon soxta mulozamatni yoqtirmasdan, dangal gapirardi, - ertaga tug'ilgan kuni Gulchehraning.

-Shunaqami, taklif uchun rahmat, - Ilhomjon entikib minnatdorchilik bildirdi, - albatta chiqaman.

-Manavini har chtimolga qarshi olib qo'y, mabodo yodingdan ko'tarilsa, esingga soladi, - Gulchehra kulib qo'shib qo'ydi. -Adresim yozilgan, uyimni qidirib qiynalib yurmassan.

-Esimdan chiqmaydi, -Ilhomjon qiz uzatgan qog'ozni oldi.

Bu chiroyli qilib yozilgan, atroflari jimjimador qilib bezatilgan, qo'lbola taklifnoma edi. Tepasiga «Hurmatli Ilhomjonga» deb yozilgandi. O'z ismini ko'rib Ilhomjon yanada quvonib ketdi.

-Bo'пти unda, ertagacha, - deb xayrlashdi Qahramon.

-Kutamiz, - qo'shib qo'ydi Gulchehra.

-Ertagacha, - qaytardi Ilhomjon.

Bolalar uzoqlashgach, bexosdan Ilhomjonning qo'l-oyoqlari shalvirab, o'zi bo'shshib qoldi. Tin



Farhod MUSAJONOV

olgani kursiga cho'kdi. Sal o'ziga kelishi bilan o'rnidan turib uyiga yo'l oldi, uchinchi qavatga arang ko'tarildi.

Uning ahvolini ko'rib, Anzirat xola dashnom berdi.

-Voy, nima qildi, namuncha ranging o'chib ketmasa?! Senga tayinlagan edim-ku, hayallab qolma, tez qaytgin deb.

-Futbol tomosha qilib qolib ketdim, buvijon.

-Futboling ham bor bo'lsin, -Anzirat xola xavotirlandi, - tuzukmisan, toliqib qolmadingmi?

-Sal charchabman shekilli, -dedi Ilhomjon holsizlanib, - hechqisi yo'q, bir pas yotib dam olsam, o'zimga kelib qolaman.

Ilhomjon qanchalik madorsiz ovozda so'zlashmasin, ko'zlarida sevinch uchquni mitillardi.

-Ha, yotaqol tasaddiq, yotaqol, toliqqan ko'rinasan.

Ilhomjon o'z xonasiga kirib krovatga cho'zildi.

Ko'p o'tmay isitmasi chiqa boshladi. Chamasi bir soatlardan keyin Anzirat xola nabirasining holidan xabar olgani kirdi. Ilhomjonning peshonasini ushlab ko'rib tahlikaga tushdi.

-Voy, isitmang ko'tariyapti-ku, ha bolasi tushmagur-ey, doktorlar o'zingni ehtiyot qilgin deyishganini darrov unutibsan-da, mana, gapga kirmaganingni oqibati, kasaling qaytalayapti, - kampir jovraganicha dahlizga chiqib telefonga yaqinlashdi, raqam terib keliniga qo'ng'iroq qildi.

-Allo, gazeta idorasimi bu? Assalomu alaykum. Menga Barnoxonni aytivoring... Kelin, sizmisiz? Uyga uchib keling, Ilhomjonning yana tobi qochib qoldi, ha, isitmasi baland. Ha, Zokirjonga ham o'zingiz xabar qiling, tez yetib kelsin.

Kampir telefon dastagini ilib, yana ichkari xonaga shoshildi.

(Davomi bor.)

TONG YULDUZI

Qadim-qadim zamonda, yerda emas osmonda Oymoma ismli ona bo'lgan ekan. Uning bir-biridan odobli, go'zallikda tengi yo'q minglab yulduz qizlari bo'lib, bir-biri bilan ahil-inoq yashar edilar. Kunlarning birida yovuz bo'ron bu ahillikka rahna solmoqchi bo'libdi. U yulduz qizlarning yuzu ko'zlariga shitob bilan tinmay qum-chang zarralarini socha boshlabdi. Atrofdan nima bo'layotganini anglolmagan go'zal yulduzlar qo'rqib uylariga berkinib olishibdi. Oymoma esa qanchalik harakat qilmasin bu bo'ronni to'xtata olmay, tongga yaqin holdan toyibdi. Bunday yovuzlikka chiday olmagan Oymomaning to'ng'ich qizi nihoyatda g'azablanib, uydan otilib chiqibdi-yu, osmonda paydo bo'libdi. Uni ko'rgan zahoti dahshatli bo'ronni titroq bosib, shashti pasaya boshlabdi va mayin shabadaga aylanib qolibdi. Shunday qilib, chang-to'zonlarga qaramay osmonda paydo bo'lgan yulduz onasi va singillarini xavfu xatardan saqlab qolibdi. Bo'ron esa o'zining yomon illatlari bilan birga mahv etilibdi. Agar siz bu jasur yulduzni ko'rmoqchi bo'lsangiz, ilk sahar atrof sukunat qo'yniga cho'mganda albatta osmonga qarang. U tong paytida osmonda paydo bo'ladi. Oymomaning ushbu go'zal, to'ng'ich qizining ismi Tong yulduzi ekan.

Umida NIYOZOVA,
Termiz tumanidagi 11-maktabning 8- «G» sinf o'quvchisi.

Qo'limdagi turfa gullarni,
Ona, kinga taqdim etayin?
Yurakdagi iliq so'zlarim,
Endi qayga olib ketayin?
Ko'ngli yarim do'stlarimni ham,
Tashlab ketgan sizdek onasi.
Mening kabi ular ham bukun,
Shu makonning bo'ldi bolasi.
Dugonamga kecha bir ayol,
Taqdim etdi jajji qo'g'irchoq.
Atrofida parvona bo'lib,
Qo'llariga taqdi ko'zmunchoq.
Qizaloqqa havasim kelib,
Hayollarim misli kapalak.
Sizni izlab ketdilar yelib,
Topolmayin bo'ldilar xalak.
Menga mehrin berib «opalar»,
E'zozlashar bo'lib parvonam.
Jajji jussam, egik boshimni,
Omon saqlar Vatanim - onam.
Lekin ko'nglim bir cheti kentik,
Chok-chokidan yurak darz ketdi.
Siz boylik axtarib tashlab ketdingiz,
Otam-chi, nimani axtarib ketdi?

GO'DAK
NOLASI



Nodira ERGASHEVA,
Mirobod tumanidagi
6-biznes maktabi o'quvchisi.



UMR KAMLIK QILAR

Qalb qo'ringiz his qilgan sari,
Dil tuyadi jannatning fasli.
Onajonim, onalar bari,
Yerga qo'ngan farishta asli.

Uyg'otasiz boshimni silab,
Har tong, sahar quyoshim bo'lib.
Erkalaysiz tinch uyqu tilab,
Tunda oydek xonamda to'lib.

Har qatiga mehrimni o'rab,
Bugun bayram, gullar teraman.
Boshingizga omonlik so'rab,
Jon-jahonim, sizga beraman.

Ko'zingizda ko'rsam qatra nam,
U tig' bo'lib qalbim tiladi.
Oq sutingiz oqlashga ONAM,
Bitta umr kamlik qiladi.

Shahnoza RAVSHANOVA,
Toshkent viloyati,
Chirchiq shahridagi
2-ixtisoslashtirilgan
maktabning 6- «V» sinf o'quvchisi.



Yakkasaroy tumanidagi 118-
maktabning 6 - «A» sinf o'quvchisi
Dilrabo DO'STOBILOVA chizgan
rasmini «BAHOR SAYLI» deb nomlabdi.



TOPISHMOQLAR


Qanoti bor ucholmas,
To'lqinlarni qucholmas.
Hech charchamaydi chopib,
Teginsang olar cho'chib.



Kuchuk bilan do'stlashdi,
Baroqvoyni quvlashdi.



Dilnavoz SAIDOVA, Jizzax viloyati,
Zomin tumanidagi 1-gimnaziyaning 5-«A» sinf o'quvchisi.



Tuzuvchi: Nurillo NO'MONOV,
Andijon viloyati, Andijon tumanidagi 3 - gimnaziya-internatning 9-sinf o'quvchisi.

Aziz mushtariy! Siz o'z do'stingizni shu bugunok kelgusi kunlar uchun «Tong yulduzi» ga obuna bo'lishga da'vat eting! Eng ko'p da'vatchining surati gazetada bosiladi. Unga tahririyatning maxsus sovg'asi ham topshiriladi. Obuna varaqasining nusxasini bizga yuborishni umutmang.

Ushbu filvordda Respublikamiz tumanlarining nomlari yashiringan. Ularni topishga urinib



Ota yuring - olin behing
TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Risboy JO'RAYEV,
Mirakmal MIROLIMOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),

Po'lat MO'MIN,
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
№ 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.
Gazeta
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
Toshkent matbaa
kombinatida chop etildi.

Adadi - 46918
Buyurtma № J 000057

Gazetani
Otabek
ESHCHANOV
sahifaladi.
Navbatchi:
Gulyuz
VALIYEVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.
Obuna indeksi: 198

Bizning elektron
pochtamiz:
ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./ faks:
(99871) 144-37-24